



**MAQSUD SHAYXZODA VA NAVOIY IJODINING TADQIQI:
ADABIY-TANQIDIY MEROSGA NAZAR**

Sevinch Anvarovna Hasanova

Faculty of Economics

Department of Transport Economics

ORCID: 0009-0005-6621-3409

Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

e-mail: hasanovasevinch7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Maqsud Shayxzodaning Navoiy ijodini tadqiq qilish borasidagi faoliyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda Shayxzodaning Navoiy asarlari haqidagi boy bilimlari, uning ilmiy qarashlari va Navoiyning adabiy merosini yoritishga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Shayxzodaning o'z davrida Navoiyshunoslik fanining shakllanishiga qo'shgan ulkan hissasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, Navoiy, Navoiyshunoslik, adabiy tanqid, ilmiy tadqiqot.

Kirish

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lib, u nafaqat shoir va dramaturg sifatida, balki adabiy-tanqidiy merosni tadqiq etishda ham muhim o'rin egallaydi. Shayxzoda Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan ilmiy-tanqidiy maqolalari va izlanishlari orqali o'zbek navoiyshunoslik fanining shakllanishi va rivojiga mustahkam zamin yaratdi.

Uning Navoiyning boy adabiy merosini chuqur tahlil qilgan ilmiy ishlari hamda o'z davrining yetakchi adabiyotshunoslari bilan olib borgan hamkorligi mazkur yo'nalish taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shayxzoda o'z tadqiqotlarida Navoiyning badiiy mahorati, g'oyaviy qarashlari va adabiyot tarixidagi o'rnini ilmiy asosda yoritishga alohida e'tibor qaratdi.

Mazkur maqolada Shayxzodaning navoiyshunoslikdagi o'rnini, uning ilmiy qarashlari hamda adabiy-tanqidiy faoliyatining asosiy jihatlari keng va tizimli tarzda tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Maqsud Shayxzoda va Alisher Navoiy ijodiga qiziqishining shakllanishi

Maqsud Shayxzoda Navoiy ijodini o'rganishga o'zbek tilini mukammal egallab, adabiyotning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'zlashtirgach kirishdi. 1930-yillarning oxirlarida u Toshkent pedagogika institutida faoliyat yurita boshladi. Aynan shu davrda Navoiyning 500 yillik yubileyiga



tayyorgarlik ishlari olib borilayotgan bo‘lib, bu jarayon Shayxzodaning ilmiy qiziqishlarini yanada kuchaytirdi. U Navoiyning boy ijodiy merosi haqidagi chuqur va asosli fikrlari bilan nafaqat talabalar, balki ustozlar e’tiborini ham qozondi. Tilshunos Tesha Salimovning guvohliklari esa Shayxzodaning keng bilim doirasi va mustahkam nazariy tayyorgarligini tasdiqlaydi.

Navoiy ijodini tadqiq etishdagi ilmiy yondashuv

Shayxzoda o‘z ilmiy-tanqidiy faoliyatida Navoiy asarlaridagi mavzular va obrazlar tahliliga alohida ahamiyat berdi. 1938–1941-yillar oraliq‘ida uning Navoiyga bag‘ishlangan bir qator maqolalari e’lon qilindi. Jumladan, “Klassik adabiyotimizning ulug‘ siymosi”, “Navoiyda ayol obrazi”, “Navoiy – vatanparvar”, “Navoiy ijodida folklor motivlari” kabi ishlarda u shoir merosini turli jihatlardan yoritdi. Ushbu tadqiqotlarda Shayxzoda Navoiyning she’riyati, poetik mahorati hamda davr muammolari bilan bog‘liq masalalarga yangicha ilmiy qarashlarni ilgari surdi.

Navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi

Shayxzoda o‘z maqola va risolalari orqali o‘zbek navoiyshunoslik fanining shakllanishida muhim o‘rin egalladi. U Navoiy ijodidagi vatanparvarlik, ilm-ma’rifat va insonparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qildi. Natijada u o‘z davrining yetakchi navoiyshunos olimlaridan biriga aylandi. Xususan, uning “Genial shoir” (1941) nomli risolasi va boshqa ilmiy ishlari mazkur sohaning dastlabki fundamental manbalari sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa va takliflar: Maqsud Shayxzoda Navoiy ijodini o‘rganish orqali o‘zbek adabiy tanqidiga yangi nafas olib kirdi. Uning Navoiyshunoslikdagi ilmiy qarashlari va tadqiqotlari bu sohaning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Shayxzoda nafaqat ulug‘ shoirning ijodiy merosini yoritdi, balki uning ijodiy olami orqali o‘z davridagi yosh olimlarga va kelajak avlodlarga ilmiy manba bo‘lib xizmat qiluvchi asarlarni qoldirdi. Shu sababli Shayxzoda nafaqat shoir, balki Navoiyshunos sifatida ham o‘zbek ilm-fan tarixida alohida o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов Наим. Мақсуд Шайхзода. Тошкент: Фан, 2009.
2. Салимов Теша. “Навоий ижоди ҳақида илк таҳлиллар”. Тошкент, 1941.
3. Шайхзода М. “Гениал шоир”. Тошкент: Ўқитувчилар нашриёти, 1941.